

TA'LIM JARAYONIDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALAR TIZIMINI BAHOLASHNING O'ZIGA XOSLIGI

Saxobiddinova Nilufarxon Kamoliddin qizi

Qo'qon davlat universiteti magistranti.

E-mail: nilufarsaxobiddinova76@gmail.com

Annotatsiya: *Ta'lim tizimida o'qitish jarayonida talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash eng bahsli va dolzarb masalalardan biri sanaladi. Xususan, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida ushbu fanning maqsad va vazifalariga shuningdek, talabalarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlari belgilab olinadi. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari tizimini baholashning o'ziga xosligi hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish baholashning unumdorligini oshishiga olib kelishini ko'rib chiqamiz.*

Kalit so'zlar: *bilim, ko'nikma, malaka, baholash, baholash tizimi, baholash mezonlari, joriy nazorat, oraliq nazorat, yakuniy nazorat, baho.*

Kirish. Bugungi globallashtirish va jadal taraqqiyot davrida oliy ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talab va maqsadlardan biri bu - mehnat bozorida raqobatbardosh, nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo'llay oladigan, moslashuvchan va mustaqil fikrlovchi mutaxassislarni tayyorlashdir. Ushbu vazifani amalga oshirishda mutaxassislik fanlarini o'qitish sifati va talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini (BKM) baholash tizimining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Faqat an'anaviy baholash usullari yoki faqatgina zamonaviy baholash usullari orqali talabalarning BKM larini baholashda ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yilishi mumkin. Shu bois, mutaxassislik fanlari doirasida talabalar BKM tizimini baholashning o'ziga xos jihatlari tahlil qilish va takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi.

Pedagogikada bilim – bu shaxsning muayyan soha yoki hodisa haqidagi nazariy ma'lumotlar yig'indisi bo'lsa, ko'nikma – bilimlarni amalda muayyan sharoitda qo'llash qobiliyatidir. Malaka esa bilimlarni va ko'nikmalarni turli vaziyatlarda ijodiy, mustaqil va samarali qo'llash, kasbiy muammolarni yechish qobiliyatini anglatadi¹. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda ushbu uch element bir-biri bilan uzviy bog'liq holda shakllantiriladi va baholanib boriladi.

¹ Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.

Oliy ta'lim tizimida talabalar bilimini "Baholash" deb talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan ko'rsatkichlar bilan solishtirishni (ularga mosligini) tushunamiz.

Baho - baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchashiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholash shartli belgilar, kod signallari va hokazolar baho ko'rinishida qayd etiladi.² Respublikamiz oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i, 26.09.2018 yil Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi³ Nizomga oid nazorat turlari quyidagicha:

- Joriy nazorat (JN)
- Oraliq nazorat (ON)
- Yakuniy nazorat (YaN)

Joriy nazorat - talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash hamda baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarida og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Oraliq nazorat - semestr davomida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko'p otkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat - semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" yoki test shaklida o'tkaziladi.⁴

Talabalarni JN, ON va YaN lar bilan baholar ekanmiz, albatta, ularning yutuq va kamchiliklarini yoritib berishimiz, javoblarini yoki yozma bajargan ishlarini tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, fan o'qituvchisi talabalarining semestr davomida bajargan ishlari, faol ishtiroki va boshqa javoblarini aniq inobatga olib bormasa va natijaviy balini chiqarganda qisqacha izohlab bermasa, talabalarda qo'yilgan bahoning to'g'riligiga, xolis va shaffofligiga shubha tug'ilishi mumkin.

² Tolipov U.K., Anarkulova G. M. Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 224 b.

³ [3069-сoн 26.09.2018. Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida](https://lex.uz/docs/-3916793)
<https://lex.uz/docs/-3916793>

⁴ Usmonov B. Sh. Pedagogik faoliyatda baholash kompetentligi. – Toshkent: TDPU, 2012. – 112 b.

Talaba o'z bilimining qanday yutuq va kamchiligi borligini tushunib, nima uchun uning bali oshganligini yoki pasayganligini anglasagina, olgan bahosi unga rag'batlantiruvchi yoki talabani yanada oldinga undovchi motiv bo'lib rol o'ynashi mumkin. Talaba o'z xatosini tushungach, uni to'g'rilashga harakat qiladi. Aks holda, bu talabaga ham, uning o'qishga bo'lgan munosabatiga ham salbiy ta'sir etishi mumkin. Bundan tashqari talabada tirishqoqlik, o'z bilimiga va iqtidoriga bo'lgan ishonchi pasayishi, ta'lim beruvchiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'lib, uni "adolatsiz"ga chiqarib qo'yishi kuzatiladi. Ta'lim beruvchining to'g'ri va adolatli asoslashi, talabaga muhim turtki beradi. Ta'lim beruvchi bilimni doim nazorat etib ball bilan baholar ekan, talabaning ishiga bo'lgan munosabatini aytib o'tadi.

Erishgan yutuqlari uchun rag'batlantirsa, kamchiligi uchun koyiydi. Uni bartaraf qilish mumkinligini ham ijodiy tayyorgarlik paytida asosiy e'tiborini nimalarga qaratish kerakligini ko'rsatadi. Bunday asoslash talaba yutuqlarining aniq bahosi bo'libgina qolmay, balki uning bundan keyingi o'qishdagi vazifalarini bajarishga yordam beradi. Bu esa talabada umid uyg'otadi. O'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va ta'lim beruvchi ustozga nisbatan ham e'tiqodni yanada kuchaytiradi.⁵ Eng asosiysi ular kelajakda o'z faoliyatlariga tanqidiy ko'z bilan qaraydigan jiddiy shaxslar bo'lib yetishadilar.

Demak, bilimni to'g'ri va haqqoniy baholash ta'lim beruvchining pedagogik faoliyatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi va qo'yilgan bahoga javobgarligini oshiradi. Baho talabaga ta'sir etib, uning ijodiy va salbiy kechinmalarini jumbushga keltiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu kechinmalar faqat bahoning qandayligiga bog'liq bo'lmay, balki uning talaba ongiga qanday yetkazishiga ham bog'liqdir. Faqat yuqorida aytib o'tilgan shartlarga rioya qilib, hamma tomon hisobga olingan holda, qo'yilgan obyektiv baho talabalarda axloqiy -irodaviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yordam beradi.

Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalar BKM tizimini baholashda bir qator o'ziga xos jihatlarni ko'rib chiqish maqsad muvofiq bo'ladi:

An'anaviy baholash tizimida ko'pincha bilim darajasiga ustuvorlik berilgan. Biroq, zamonaviy mehnat bozori talablari nafaqat bilimlarni, balki olingan bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmasini va ayniqsa, murakkab kasbiy vaziyatlarda mustaqil harakat qilish malakasini talab qilmoqda. Shu bois, baholash jarayoni mazkur BKM tizimining har bir komponentini to'liq aks ettirishi lozim. O'ziga xos jihatlarni o'rganganimizda, biz maliyotga yo'naltirilganlik tamoyilini asosiy va muhim ekanligini ko'rib chiqdik. Mutaxassislik fanlari, asosan, muayyan kasbiy faoliyatga tayyorlashni ko'zda tutganligi bois, baholashda talabalarning nazariy bilimlari qanchalik amaliy ko'nikma va malakalarga aylanganiga ko'proq urg'u beriladi. Bu baholash

⁵ Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.

jarayonida faqatgina nazariy bilimlarni tekshirish emas, balki amaliy topshiriqlar, laboratoriya ishlari, turli muammoli keyslar, kazuslar va loyiha ishlarini baholashni talab qiladi.

Yana bir muhim jihatlaridan biri bu integrativlik⁶ ya'ni mutaxassislik fanlarida bilim, ko'nikma va malakalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki kompleks tarzda baholanadi. Talaba bir muammoni hal qilishda nafaqat tegishli bilimlarni eslab qolishi, balki ularni qo'llash ko'nikmasini va kutilmagan vaziyatlarda moslashuvchanlik malakasini ham namoyon etishi kerak bo'ladi. Baholash bu integratsiyani, ya'ni talabaning turli bilimlarni birlashtirib, bilimlarni bir-biri bilan bog'lab, yangi vaziyatlarda ularni qo'llay olish qobiliyatini aks ettirishi zarur.

Kasbiy standartlarga muvofiqlik jihatida shundaki belgilangan kasbiy meyorlarga amal qilish, ularga muvofiq ish olib boorish nazarda tutiladi. Mutaxassislik fanlarida baholash mezonlari ko'pincha tegishli sohaning milliy va xalqaro kasbiy standartlari, malaka talablari, sertifikatlashtirish talablari bilan uyg'unlashtiriladi. Bu talabalarni mehnat bozorining real talablariga mos ravishda tayyorlashni, bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini oshirishni ta'minlaydi.

Muammolarni hal qilishga yo'naltirilganlik: Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida baholash talabaning murakkab kasbiy muammolarni aniqlash, tahlil qilish, samarali yechimlar topish va ularni amalga oshirish kabi tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish malakalarini baholashga qaratilgan bo'ladi. Bu passiv bilimlarni qayta takrorlashdan ko'ra, faol kognitiv jarayonlarni talab etadi.

Baholash subyektlarining kengayishi: An'anaviy baholashda faqat o'qituvchi baholovchi rolida bo'lsa, mutaxassislik fanlarida tengdoshlar bahosi, tengdosh-tengdoshga tamoyili asosida baholash, o'z-o'zini baholash, amaliyot rahbarlari yoki ish beruvchilarning fikrlari ham baholashning ajralmas qismiga aylanadi. Bu baholashning obyektivligini oshiradi va talabalarning javobgarlik hissini yanada kuchaytiradi.

Etik va adolatli yondashuv: Mutaxassislik fanlarida baholash nafaqat ilmiy, balki etik jihatdan ham adolatli, shaffof va xolis bo'lishi lozim. Talabaning shaxsiy sifatлари, munosabati ham baholashda ma'lum darajada inobatga olinishi mumkin, ammo bu jarayon xolis mezonlar asosida, xato va noto'g'ri baholashga yo'l qo'ymasdan amalga oshirilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan o'ziga xosliklarni hisobga olgan holda, mutaxassislik fanlarida BKM tizimini baholashda quyidagi zamonaviy usullardan samarali foydalanish lozim⁷:

- Loyihaga asoslangan baholash;
- Vaziyatli masalalar (Keys-stadi) va muammoli topshiriqlar;

⁶ Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.

⁷ Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.

- Simulyatsiya va Imitatsion o'yinlar;
- Portfolio baholash;
- Kompetensiyaga asoslangan baholash ;
- 360-gradusli qayta aloqa .

Raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish mutaxassislik fanlarida BKM tizimini baholashning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini beradi deb hisoblaymiz.

Quyida bir necha raqamli texnologiyaga misollarni ko'rib chiqamiz: Elektron portfolio: Talabalarning ish namunalari, loyihalarini, yutuqlarini raqamli formatda to'plash, saqlash va taqdim etish imkonini beradi. Bu baholash jarayonini shaffoflashtiradi va talabaning rivojlanish dinamikasini kuzatishni osonlashtiradi.

Onlayn simulyatorlar va virtual laboratoriyalar: Qimmat va xavfli amaliyotlarni virtual muhitda bajarish imkoniyatini yaratadi. Masalan, virtual kimyo laboratoriyalari, muhandislik dasturlash simulyatorlari orqali talabalar amaliy ko'nikmalarni xavfsiz va qulay sharoitda mashq qilishlari va ularni baholashlari mumkin.

O'quv jarayonini boshqarish tizimlari (LMS – Learning Management Systems): Moodle, Canvas, Google Classroom kabi platformalar topshiriqlarni yuklash, avtomatlashtirilgan testlar o'tkazish, rubrikalar orqali baholash, qayta aloqalarni taqdim etish va baholarni kuzatish imkoniyatini beradi.

Moslashuvchan test tizimlari: Sun'iy intellektga asoslangan test tizimlari talabaning javoblariga qarab savollar murakkabligini o'zgartirib, bilim darajasini yanada aniqroq baholay oladi.

Plagiatni aniqlash dasturlari va sun'iy intellektga asoslangan tahlil: Yozma ishlar, esselar, loyihalardagi o'ziga xoslikni tekshirish, shuningdek, ayrim hollarda ish mazmunini dastlabki baholashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Xulosa. Mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari tizimini baholashning o'ziga xosligi uning amaliyotga yo'naltirilganligi, integrativ xarakteri, kasbiy standartlarga muvofiqligi va muammolarni hal qilishga qaratilganligida namoyon bo'ladi. An'anaviy baholash usullari bu xususiyatlarni to'liq qamrab ololmasligi sababli, loyihaga asoslangan baholash, keys-stadi, portfolio, simulyatsiya va kompetensiyaga asoslangan baholash kabi zamonaviy usullarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Baholash jarayonlarida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish baholashning obyektivligini, shaffofligini va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Biroq, bu jarayon o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, mehnat bozori bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish, shuningdek, shaffof qayta aloqa mexanizmlarini yaratish bilan birga amalga oshirilishi lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni (Yangi tahriri). O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentyabr. – Toshkent, 2020.
2. [3069-сон 26.09.2018. Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida](https://lex.uz/docs/-3916793)
<https://lex.uz/docs/-3916793>
3. Xodjayev B.X. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart, 2017. – 416 b.
4. Usmonov B. Sh. Pedagogik faoliyatda baholash kompetentligi. – Toshkent: TDPU, 2012. – 112 b.
5. Tolipov U.K., Anarkulova G. M. Oliy va professional ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 224 b.
6. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's taxonomy of educational objectives. New York: Longman.